



NUTQIY INTENSIYA NAZARIYASI VA O‘ZBEK LATIFALARINI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDA NUTQIY INTENSIYALAR MASALASI

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti

2-kurs PhD talaba

E-mail: khusanbayeva@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada “Nutqiy intensiya” nazariyasi va tarixiga umumiy ta’rif beriladi, uning lingvopragmatikada o‘ziga xos o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, nutqiy intensiyalar ustida tadqiqot olib borgan olimlar, hamda o‘zbek latifalarini ingliz tiliga tarjima qilishda nutqiy intensiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: latifa, nutqiy intensiya, faoliyat, so‘zlovchi, tinglovchi, Mulla Nasriddin, tahlil.

Tilshunoslikda lingvopragmatikaga berilgan ta’riflarni tahlil qilar ekanmiz, ularda ko‘tarilgan asosiy masalalardan biri bu so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqat, so‘zlovchining tinglovchiga ta’siri, ya’ni nutq faoliyati yotar ekan, “o‘zining umumbashariyligi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga ko‘ra muloqot qilmaslikning iloji yo‘q, fikrlash jarayoni sodir bo‘lish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, shubhasiz, insonning eng muhim va asosiy faoliyatlari sirasiga kirgan eng oliy faoliyati nutq faoliyati hisoblanadi. [1, 64] Nutq faoliyati vaqtida so‘zlovchiga qanday ta’sir ko‘rsatish esa, so‘zlovchi ko‘zlangan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Zero, tinglovchiga qanday maqsadda ta’sir ko‘rsatilishiga qarab, kishi xotirasi zahirasidan lison tanlanadi va nutqimizda ifodalanadi, shu bilan birga nutqiy faoliyat jarayoni boshlanadi, “maqsad harakatda keltiradi. Maqsad harakatga ma’no bag‘ishlaydi.” [2, 14] Maqsad, yoki intensiya “harakatga keltiradigan kuch demakdir.” [3, 18] Shu bois ham intensiya lingvopragmatikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Nutqiy intensiya nima ekanligini anglash uchun esa faqat so‘zlovchi xotirasidagi ichki emas, balki unga ta’sir ko‘rsatadigan har xil tashqi pragmatik kommunikativ vaziyatlarni ham inobatga olish joiz sanaladi. E.S.Aznaurova buni quyidagi savollar zanjiri orqali tushuntiradi: “Kim-kimga-nima-qayerga-qachon-nima uchun –qanday qilib”. Birinchi ikkita birlik aloqa ishtirokchilariga, boshqacha aytganda, adresat va murojaat qiluvchiga, ularning ijtimoiy, etnik xususiyatlariga bog‘liq. Murojaatchi nutq aktini yaratuvchisidir, u o‘z niyatlarini ro‘yobga chiqarish va ularni tinglovchi yoki qabul qiluvchida ma’lum qilishni maqsad qiladi. [4, 438] Falsafa fanlari professori R.Jekendov “intensiya” atamasiga falsafiy yondashib, quyidagi izohlarni bildiradi: “Meni niyat so‘zi nimani anglatishi o‘ylantirib qo‘ydi, ya’nikim, kimdirga nimanidir niyat qilishni aytishgandaka vaziyatlarda kishilar qanday fikr yuritgan bo‘lardilar. Shunday qilish kerak bo‘lsa, men o‘zimni maksimal darajadagi haqiqat aspektlarini emas, inson haqidagi tushunchani o‘rganyapgan bo‘lardim. Biz ularga nisbatan niyatlarimizni bildirgan vaqtimizda ularning miyalarida ayni damda nima kechayotgani meni o‘ylantirmaydi.” [5, 24]



“Новый словарь методических терминов и понятий” lug‘atida nutqiy intensiyaga (lotinchadan “intentio”-niyat)-nutqiy akt kabi nutqiy vositalari yordamida qandaydir mulohazaga arziqli so‘zlovchining fikrini ifodalashni maqsad qilishi. Nutqiy intensiyaning asosida motiv va maqsad, ya’ni nutqiy faoliyatga sabab bo‘luvchi faktor, shuningdek, nutqiy bayonot yotadi,-deb ta’rif beriladi. [6, 251]

Izlanishimizning mazkur bo‘limida oldimizga qo‘yilgan asosiy vazifamiz o‘zbek latifalarini ingliz tiliga tarjimasidagi nutqiy intensiyalar xususiyatini tadqiq qilish kerak ekan, nutq faoliyati va nutqiy intensiyalarni keng tadqiq qilgan A.A.Leontev, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva va R.Jekenivlarning izlanishlaridan dasturul amal sifatida foydalanishga qaror qildik.

Avvalambor, A.A.Leontevning nutqiy intensiya haqidagi izlanish natijalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, nutqiy intensiya “...nutqiy akt boshqa til hodisalari kabi o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari bilan xarakterlanadi (faoliyatga nisbatan bir butun va faoliyatga bo‘y sungan maqsad oralig‘ida)... Shundan kelib chiqib, nutqiy aktlar haqida gap ketganda birinchi bo‘lib nutqiy intensiyalar yoki nutqiy maqsadga ko‘ra izohlanadigan faktorlar, ikkinchidan nutqiy intensiyalarni amalga oshishiga xizmat qiladigan faktorlar haqida so‘z yuritish mumkin. Tabiiyki, nutqiy maqsadni psixologik ahamiyati jihatidan faoliyatga bir butun harakat sifatida yondashishilishiga ko‘ra, nutqiy aktning faqatgina mazmuniga qiyoslash mumkin.” U shuningdek, nutqiy maqsad amalga oshirilish jarayonida nutqiy aktlarning qaysi tilda amalga oshirilishi, semantik tanlov yoki nutqiy aktlarning qayta tanlanishi (gap ona tilidan tashqari tillar haqida ketganda) kabi omillar nutqiy intensiyaga aloqasi yo‘q bo‘lib, bularning bari nutqiy intensiyani qo‘llash jarayoniga tegishli. Bu shuni anglatadiki, nutqiy intensiyalar nutqiy bayon qilishning semantik holatini ko‘rsatish emas, balki nutq ijrosidago so‘nggi qaror va aniq leksemalar birikmalari tanlovi natijalari oqibatida shakllanadi va u kishilarning subyektiv “fikrlari”ga asoslanadigan dasturlar tuzilmasidir. A.A.Leontev nutqiy intensiyalarni vujudga keltiradigan faktorlar va ularni amalga oshiradigan faktorlarni ham keltirib o‘tadi. Ular quyidagilar. Nutqiy intensiyalarni vujudga keltiradigan faktorlar:

1. Motivatsiya. 2. Muhit afferentatsiyasi. 3. Aniq bo‘lgan tajriba. 4. Ish-harakatning vazifasi.

Ana endi nutqiy intensiyalarni yuzaga chiqaradigan faktorlarga keladigan bo‘lsak:

1. Til. 2. Til egallaganlik darajasi. 3. Funktsional-stilistik. 4. Sotsiallingvistik. 5. Affektiv. 6. O‘ziga xos nutqiy tajriba. 7. Nutqiy kontekst. 8. Nutqiy vaziyat. [7, 24, 30-36]

Yuqorida A.A.Leontevning nutqiy intensiya, ularning vujudga kelishi va amalga oshishiga sabab bo‘ladiga faktorlarni ko‘rib chiqdik. Ana endi nutqiy intensiyaning R.Jekenov va A.U.Ashurova tomonidan taqdim etilgan turlarini ko‘rib chiqamiz, hamda misollarlar orqali tahlil qilib chiqamiz. R.Jekenov va A.U.Ashurovalar nutqiy intensiyalarni quyidagi turlarga ajratadilar, hamda tahlillar F.Yo‘ldoshevaning “Afandi latifalari” va Sh.Idrislarining “Mulla Nasruddin” to‘plamidagi tarjimalaridan foydalaniladi. Amalga o‘tishdan avval, shuni alohida ta’kidlab o‘tishni lozim topardikki, Sh.Idrisning to‘plamida berilgan latifalar tarjimalarida tarjima jarayonida



voqealardagi ba’zi o’zgartirishlar, yoki voqealardagi qisqartirishlarga duch keldik. Mufassal tahlillar tadqiqot jarayonida to’liq bayon qilib boriladi:

1.E’tiborni jalb etish intensiyasi (e’tiborni jalb etishga majburlash). Intensiyaning bu turi B.A.Larin, R.Yakobsan, I.V.Arnold kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo’lib, unda intensiya so’zlovchini faollashtirish, “dezavtomatsiya” bilan bog’liq bo’lib, Gavarnyuk: “Faollashtirish deganda tinglovchini jalb etish uchun foydalaniladigan g’ayrioddiy, dezavtomatik lingvistik birliklardan foydalanish”,-deb tushuncha beradi. [8, 355]

Mushuk qani?

Afandi bir kuni bozordan uch qadoq go’sht olib keldi-da, xotiniga:

- Kechqurun yaxshilab chuchvara qil,- deb tayinladi.

Xotini go’shtni o’zi qovurib yedi-yu, kechqurun Afandining oldiga yovg’on ugra qo’ydi.

-Chuchvara qani? - deb so’radi Afandi.

-Go’shtni mushugingiz yeb qo’ydi, — deb javob berdi xotini.

Afandi mushukni ushlab toroziga qo’ygan edi, rosa uch qadoq keldi, hominian s’radi:

-Agar bu mushuk bo’lsa, g’o’sht qani, agar bu g’o’sht b’lsa, mushuk qani?

[9, 31- bet]

Inglizcha tarjimasi:

The cat and the meat.

Nasrudin gave his wife some meat to cook for guests. When the meal arrived, there was no meat. She had eaten it.

“The cat ate it, all three pounds of it,” she said.

Nasrudin put the cat on the scales. It weighed three pounds.

“If this is the cat,” said Nasrudin, “where is the meat ? If, on the other hand, this is the meat -where is the cat?”

Avvalambor, tarjima asllyatdagi farq latifa sarlavhasining tarjimasidayoq ko’rinadi. Asllyatda latifa **“Mushuk qani?”** deb nomlanib, tarjimada tarjimon latifaning umumiy mazmunidan kelib chiqib **“Mushuk va go’sht” (The cat and the meat)** deb nomlaydi. Bu usulni latifaning tarjimasida ham qo’llyaydi, ya’ni asllyat bilan tarjima solishtirilganda latifaning asosiy mazmunini tarjima orqali beradi. Xususan, “Afandi mehmonlarga pishirib berish uchun xotiniga go’sht beradi. Taom olib kelinganda esa, go’shti bo’lmaydi. U (xotini) yeb qo’ygandi.

“Mushuk yeb qo’ydi, uch qadoqning hammasini,”- u dedi.

Nasriddin mushukni torozuga qo’yadi. U (mushuk) uch qadoq chiqadi.

“Agar bu mushuk bo’lsa,”-dedi Nasriddin, “go’sht qani? Agar, boshqa tomondan, bu go’sht bo’lsa-mushuk qani?”. [10, 8]

Latifadadagi kulminatsion qism bu latifaning so’ggi jumlasini **“-Agar bu mushuk bo’lsa, g’o’sht qani, agar bu g’o’sht b’lsa, mushuk qani?”** inglizcha tarjimasida **“If this is the cat,” said Nasrudin, “where is the meat ? If, on the other hand, this is the meat -where is the cat?”** hisoblanadi. Tarjimada ham, asllyatda ham e’tiborni tortish uchun:



1.Kontrast voqeylik, ya’ni iboradagi berilga ikki holat bir biri bilan qarama qarshi qo‘yilgan bo‘lib, odatda e’tiborni tortishda kata xizmat qiladi:

“If this is the cat, where is the meat ? “

“If, on the other hand, this is the meat -where is the cat?”

2.Savolning retorik turidan foydalanilganligi. Ma’lumki, oratorlikda ham retorik savol tinglovchini e’tiborini tortishda foydalaniladi.

“Where’s the cat?”

“Where’s the meat?”

2. Ikkala iboraning ham o‘xshash grammatik shalda tuzilganligi:

“If this is the cat, where is the meat ? “

“If, on the other hand, this is the meat -where is the cat?”

Bundan tashqari jummalarni takrorlash orqali jumla mazmini **kuchaytirish**, **mavhymlilik**, ya’ni savollarni **takrorlash** orqali mushuk, yoki bo‘lmasam go‘shetni qayerdaligi qiziq ekanligi, javobni esa tinglovchi ihtiyoriga tashlab, uni o‘ylashga majbur qilishi kutiladi. Yana shuni ham qo‘shimcha qilib o‘tishni joiz topdik, latifaning so‘ggi jumlasini ingliz tiliga tarjimasini quyidagicha berilsa,

“If that's the meat, then where's the cat?”

“And if that's the cat, then where's the meat?”

Kutilgan natija tarjimada yana ham ta’sirliroq bo‘lardi, hamda o‘zbek tilidagi tarjimasiga yana ham yaqin bo‘lgan bo‘lardi. Bundan tashqari nutq intensionalini yana: 2) o‘quvchini qiziqtirish intensional; 3) emotsional ta’sir ko‘rsatish intensional; 4) konseptual ma’lumotga muvofiq bilimlar tarkibini faollashtirish intensional; 5) o‘quvchining ijodkorligini rivojlantirish intensional; 6) konseptual olam tasvirini qayta ifodalash intensional kabi turlari ham mavjud bo‘lib, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nutq intensionalidan qanday foydalana olish esa kelajakda tinglovchi bilan muloqot davomiyligi va munosabatlarga ta’sir etadi. Zero, nutqiy intensional tinglovchi va so‘zlovchi orasida “ko‘prik” bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Супрун А.Е. Лекции по теории речевой деятельности. Мн., 1996. С.64.
2. Арутюнова Н.Д. Язык цели // Логический анализ языка: Модели действий. М., 1992. С. 14.
3. Ключев Е. В . Речевая коммуникация. М., 2002. С.18.
4. Mansurov R., Pragmatic intentions and their verbalization in different types of texts (on the materials of English language)// Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice, Т. 6. №7. 2020. P. 438.
5. R.Jackendoff, Language, Consciousness,Culture: Essays on Mental Structure, 2007. P.
6. Азимов Э. Г., Щукин А. Н., Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – С.251.
7. А. А. Леонтьев, Издательство «Наука», 1974 г., Сс. 24, 30-36.)
8. Гаварнюк Б. Задачи литературного языка и его культура. Пражский лингвистический кружок. —М.: Прогресс,1967. С.355



9. Афанди латифалари. Баходир саримсоқов, Фарида Йўлдошева. Тошкент. Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. Б. 31.
10. Idries Shah. Exploits of Mulla Nasruddin, Octagon Press, 1986. P. 8.